

RAQAMLI TA'LIM – O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA SIFAT SAMARADORLIGI
OMILI

Lukmonova Salomat Gafurovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quv-tarbiya jarayonida sifat samaradorligini oshirish uchun raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning nazariy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Raqamli ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'quv-tarbiya jarayoni, samaradorlik, raqamli o'quvchi.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. Iqtisodiyot, bank, xizmat sektori, shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidladi: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi”.

“Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Raqamli ta'lim – zamonaviylikning o'zigina emas. Ilovalar bolaga tezroq va osonroq o'qish va vazifalarni yechish imkonini beradi. Amerikalik tadqiqotchilar uch yil davomida onlayn tarzda o'qigan 2300 nafar o'quvchini tadqiq qilishdi. Ular odatiy darslarda bolalar ma'lumotning bor-yo'g'i 5 foizini, ta'lim beruvchi saytlar orqali esa - uch marta ko'prog'ini eslab qolishlarini aniqlashdi.

Koronavirus pandemiyasi ko'p sohalarda insonlar hayot tarzini tubdan o'zgartirishi mumkin. Hatto konservativ soha hisoblanadigan ta'lim tizimini ham yangi sharoitlarga tezkor moslashishga va o'zgacha tartib-qoidalar bo'yicha ish olib borishga majbur qildi.

Uning ta'siri, ayniqsa, ta'limda yaqqol ko'rinmoqda. Barcha, xususan, ta'lim oluvchi ham ta'lim beruvchi ham karantin holatida. Jonli, yuzma-yuz dars berish ko'nikmalariga o'rgangan o'qituvchilarimiz bu vaziyatda bir oz sarosimaga ham tushgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bunday holatda qanday yo'l tutish kerak?

Birinchi galda, hozirgi holatni ijobiy yo'nalishga solish va ushbu vaziyatni bir imkoniyat sifatida qabul qilishi kerak. Boisi, ta'lim ekspertlarining xulosalariga qaraganda koronavirus pandemiyasidan so'ng ta'limning rivojlanish yo'nalishlari qayta ko'rib chiqiladi; ta'limning yangi davri – raqamli ta'lim davri boshlanadi. Raqamli ta'lim masofa va makon to'siqlarini olib tashladi.

Barcha ta'lim turlari orqali boshlang'ich ta'limda ham raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va bu orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishning yangi yo'llarini izlab topish har bir o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

Raqamli ta'limni qanday afzaliklari bor degan savol o'rtaga chiqadi:

- Eng avvalo ma'lumotlarning yagona mukammal bazasi shakllanadi;
- Doimiy tarzda umumiy holatda yangilanish (UPDATE) olib borish qulaylashadi;
- Maktabda o'qituvchi va o'quvchilar vaqtdan unumli foylanadi;
- Maktab partalarini sensor ekranlarga aylantirilishi esa kelajak avlodni ta'limdan ancha samarali foydalana olish imkoniyatini oshiradi;
- Katta songa ega auditoriyalarni tashkil qilish mumkin;
- Ta'lim sifati oshadi, o'qituvchining darsdagi nazorati va faoliyatini oshiradi;
- Nazorat mamlakat miqiyosida yakdil bir markazlashgan holga keladi;
- Uyda ota-ona ta'lim tizimiga uzviy bog'lana oladi va farzandini mustaqil tarzda tekshirish imkoniyati yaratiladi;
- Bu tizimga xizmat qiluvchi uchun ishlab chiqarish sohalari ham oshadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi, ichki va tashqi bozorda mahsulot ishlab chiqarish ortadi;

Ushbu holatda “raqamli o'quvchi” iborasi vujudga keladi. Xo'sh, raqamli talaba kim?

Hozirgi kunda bir nechta raqamli qurilmalar orqali tezkor aloqada bo'lishga odatlangan va ilgari o'quvchilarga qaraganda zamonaviy har xil o'quv uslublaridan foydalanadigan o'quvchidir.

Raqamli ta'lim o'z ichiga raqamli sinfxona, raqamli kutubxona, raqamli uyni ham qamrab oladi.

Raqamli laboratoriya tushunchasi esa ancha keng imkoniyatga ega bo'ladi.

O'quvchilar turli fanlar bo'yicha raqamli laboratoriyadan foydalana oladilar.

Bunda:

- Jihozlar masalasidagi muammolar bo'lmaydi, barchasi raqamli dasturga aylantiriladi;

- Xavfsiz va ko'p bora takrorlash imkoniyati;

Raqamli ta'limda tilimizning ham mavqei oshib boradi.

Raqamli texnologiyali ta'lim tizimiga erishiladigan bo'linsa, o'zbek tilining til sifatidagi o'rni mustahkamlanadi. Milliy tizimda hattoki yakdil gapirish metodi shakllanadi, gapirish testlari ham yaratiladi. Pirovardida esa til mustahkamlanib uning mavqei oshadi.

O'zbekiston kelajagi buyuk bo'lishi uchun bugungi kun dunyo ta'limining u hattoki zamonaviy bo'lsada undan ham oshib kelajakka sakrashi lozim. Shundagina kelajak texnologiyalar o'zbek ta'limi zamirida yaratiladi. Buning natijasida iqtisod va siyosat, jamiyat mavqei oshadi. Yo'qsa, boshqalar yaratgan texnologiya va bilimni o'zlashtirish uchun umrni sarflayveramiz. Dunyoda o'z o'rnimizni topa olishimiz uchun esa shunchaki hali ochilmagan kelajak bilimlari tomonga sakrash kerak xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лукмонова, С. (2022). **BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFLAR O 'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH:** Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 221-226.
2. Gafurovna, L. S. (2021). **BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.** In *Научно-практическая конференция*.
3. Lukmonova, S. (2020). *Digital Educational Resources and its Importance in Teaching.* ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
4. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
5. Лукмонова, С. Г. (2020). *Цифровые образовательные ресурсы в педагогической деятельности.* In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 34-39).
6. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
7. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). *A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources.* *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 258-262.

8. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 123-128.
9. Gafurovna, L. S. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA‘LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.
10. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12). Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
11. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
12. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
13. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 138-143.
14. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.
15. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.
16. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
17. G‘aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O‘RGATISH MASHG‘ULOTLARIDA, A‘‘HARF-TOVUSHINI O‘RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41).
18. Tojiddinova, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta‘siri. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 429-435.
19. Tajiddinova, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 469-475.

20. Исомова, Ф. Т. (2024). Виды образования и их влияние на развитие личности. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 461-468.
21. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА “ILK QADAM” DASTURI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 603-608.
22. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). FIRST STEP PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 609-614.
23. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). THE ISSUE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 615-620.
24. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 590-595.
25. Рузиева, М. (2023). ТАРЖИМА ПЛАТФОРМАСИ-МУТАРЖИМ ЛИСОНИЙ ТАФАККУРИНИНГ КЎЗГУСИ. Наука и технология в современном мире, 2(20), 37-39.
26. Рузиева, М. Я., & Эргашева, Т. Ш. (2022). МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. Вестник науки и образования, (2-2 (122)), 29-32.
27. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
28. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 6-11.
29. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo 'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
30. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
31. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.
32. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarning ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
33. Saburovna, S. M. (2022). Ta'limni Modernizatsiyalash Sharoitida Pedagog Professionalizmini Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 30, 362-366.

34. Sarvinoz, Q. (2022). Emotional understanding of individuals the role of emotions. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(1), 12-18.
35. Qosimova, S. B. (2021). O'smirlik davridagi o'quvchilarda ijtimoiy intellekt muammosining psixologik xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 554-559.
36. Baxtiyorovna, Q. S. (2020). Heads Of Competence In Psychologically School Education. *International journal of scientific & technology research*, 9(02).
37. Касимова, С. Б. (2022). Развитие персональной компетентности руководителя в управлении дошкольным образовательным учреждением. *Science and Education*, 3(4), 1379-1383.
38. Ismatova, H. B. (2024, April). INNOVATIVE PROCESSES IN EDUCATION. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 44-47).
39. Ismatova, H. B. (2023). Participation in higher education system. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(6), 83-88.
40. Ismatova, H. B. (2023). BO 'LAJAK IJTIMOY PEDAGOGLARNING KASBIY O'ZO'ZINI RIVOJLANISH SHARTLARI. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 169-172.
41. Ismatova, H. B. (2022). TARBIYASI QIYIN VA BOSH OZLASHTIRUVCHI OQUVCHILAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING METODIK IMKONIYATLARI. *Scientific progress*, 3(4), 1017-1023.